



## JURNALIST KADRLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI

**Dusimbetova Nargiza Baxtiyarovna**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Qayimova Sevara Dilshod qizi,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Xalqaro jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.16832813>

***Annotatsiya** Mazkur maqolada jurnalist kadrlarni tayyorlash jarayonida axborot xavfsizligi kompetentligining o'rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. Ayni globallashtirish va raqamli texnologiyalar sharoitida jurnalistlar nafaqat axborotni tezkor yetkazishi, balki uni ishonchli, tekshirilgan va manipulyatsiyadan holi shaklda taqdim etishi lozim. Maqolada ham axborot xavfsizligining asosiy qismlari, zamonaviy tahdidlar sharoitida jurnalist kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha tavsiyalar bayon etiladi.*

***Kalit so'zlar:** axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoq, axborot hujumlari, mediasavodxonlik, axborotlashtirish, avtoritar ong.*

***Аннотация.** В статье анализируются роль и значение компетентности в области информационной безопасности в процессе подготовки журналистских кадров. В современных условиях глобализации и цифровых технологий журналисты должны не только оперативно доносить информацию, но и представлять её в достоверной, проверенной и неманипулированной форме. В статье также рассматриваются основные составляющие информационной безопасности, даются рекомендации по повышению профессиональных навыков журналистов в условиях современных угроз.*

***Ключевые слова:** информационная безопасность, социальные сети, информационные атаки, медиаграмотность, информатизация, авторитарное сознание.*

***Abstract.** The article analyzes the role and importance of information security competence in the process of training journalists. In the modern conditions of globalization and digital technologies, journalists must not only promptly convey information, but also present it in a reliable, verified and unmanipulated form. The article also examines the main components of information security, gives recommendations for improving the professional skills of journalists in the context of modern threats.*

***Keywords:** information security, social networks, information attacks, media literacy, informatization, authoritarian consciousness.*

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugun dunyoda yirik axborot markazlari o'rtasida informatsion kurash kundan kun avj olib bormoqda. Shu bois, aholi, aynqisa, yoshlar oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri turli yot manbalar ta'siridan himoyalash, mustaqil fikrga ega bo'lish, tanqidiy fikrlashni oshirishdir. Ayni shu vaziyatda axborot xavfsizligini ta'minlash tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. "Axborot xavfsizligi – bu axborot iste'molchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy harakterga ega tasodifiy va



uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir. Uni ta'minlashda esa, foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga qo'yilgan me'yor va talablarni bajarish vazifalari ko'zda tutiladi". Mana shunday bir vaziyatda global axborot tizimida psixologik xavfsizlik masalalari dolzarb muammoga aylandi. Axborot hujumlari avj olgan bir davirda globallashtirish jarayonining o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo'la boshlaydi. Bugungi kunda davlatlarning bir qancha tarmoqlarda hamkorligi shuni ko'rsatmoqdaki, bir mintaqadagi salbiy yoki ijobiy voqea – hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya'ni an'anaviy tahdidlar bilan o'zaro qo'shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o'zaro bog'liqligi o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat esa va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, bugungi kunda jahon geosiyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o'zgarishi, ko'p qutbli markazlar yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat hamda ayrim davlatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan-ochiq da'volari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### **METODLAR VA O'RGANISH DARAJASI**

Hozirgi kunda dunyo miqyosida axborotlar juda ham ko'p. Inson bir kunda minglab axborotlarga duch keladi. Aytish joizki, bularning hammasi ham rasmiy emas. Ayniqsa, XXI asrda bu avj olib borayotgan jarayondir. Ijtimoiy tarmoq turli noqonuniy tashkilotlar, yashirin jinoiy guruh a'zolari, xakerlar, kiberjinoiyatchilar uchun haqiqiy o'lja yig'ish uchun asosiy joyga aylandi. Ular jamoatchilik ongini zaharlovchi materiallarni tarqatish, yoki, manipulyatsiya yo'li bilan odamlarni bir-biriga nafratini oshirishmoqda. Shuningdek, aldov yo'li bilan odam savdosi qurboniga aylantirish, urushlarga jalb qilish, turli xalqlar o'rtasida o'zaro nizo uyushtirish holatlari ko'paygani xavotirlidir.

So'nggi o'n yillik ichida global axborotlashtirish, intensivlashtirish va xalqarolashtirish jarayonlari ta'sirida ijobiy o'zgarishlar bilan birga bir qator salbiy jarayonlarni ham kelib chiqmoqda. Jumladan, shaxsiy axborotlarning tarqalib ketishi, mediasavodsizlik, kiberhujumlar shular jumlasidandir. Shu boisdan, yoshlarga, ya'ni oliy o'quv yurti talabalariga mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi bo'yicha bir qator darslar o'tilishi lozim. Avvalo, jurnalistika soha vakillari bundan xabardor bo'lishlari shart. Chunki, ular jamoatchilik orasida ko'proq yurishadi, ular bilan hammadan ko'ra yaxshiroq muloqot qilishadi. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan tahdidlar, yolg'on xabarlar, manipulyativ materiallar va kiberhujumlar jurnalistlardan nafaqat kasbiy mahorat, balki axborot xavfsizligi kompetentligini ham talab etmoqda. Shu



bois, bugungi kunda jurnalist kadrlarni tayyorlash jarayonida axborot xavfsizligi masalalari alohida e'tiborga olinishi lozim. Bu kompetentlik nafaqat ularning shaxsiy ma'lumotlarini, balki jamiyatga yetkazilayotgan axborotning haqqoniyligi va ishonchliligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega

Mamlakatimizda ham axborot xavfsizligi masalasi dolzarb muammo sifatida ko'tarilib Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-sentyabrdagi qarori bilan, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish maqsadida, maxsus markazlar – "Elektron hukumat tizimini rivojlantirish markazi" hamda "Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi"ni tashkil etish belgilangan<sup>1</sup>. Qarorga muvofiq "Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi"ning asosiy vazifalari biri etib qonun buzuvchilarni tahlil etish, indentifikatsiyalashda, axborot makonida olish taqiqlangan axborotlarni ruxsatsiz olishga yoki buzishga bo'lgan harakatlarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan bu islohotlar tubdan o'rganilib muammo va kamchiliklar xususida yillik dasturlar belgilab olindi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiya"sida "V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar"iga bag'ishlanib uning "5.1 Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni taminlash sohasidagi ustunvor yo'nalishlar"ni qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda jurnalist kadrlarni tayyorlashda axborot xavfsizligi kompetentligini tarixiy tipalogik qadriyatlar vositasida rivojlantirish alohida zaruriyat kasb etadi

Shu o'rinda savol paydo bo'lishi tabiiy hol: Axborot xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy immunitetni shakllantirishni auditoriyaning qaysi qismidan boshlagan maqul? Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mafkuraviy immunitetini hosil qilish orqali axborot tahdidlariga qarshi kurashish mumkin. Bugungi kunda barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari axborot tahdidlari mavjudligi haqida yetarlicha bilim ko'nikmalariga ega, ammo axborot tahdidlari kanallari uni inson ongi algoritimlarini psixologik boshqarish xususiyatiga ega ekanligi haqida yetarli bilim ko'nikmalarga ega emaslar. Shu nuqtaiy nazardan hozirda oliy ta'lim muassasalari mutaxassisliklari orasida axborot bilan bevosita ishlaydigan jurnalist kadrlarning axborot saralash qobiliyatini shakllantirish orqali auditoriyaga ta'sir etish. Jurnalistika sohasi vakillari axborotni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi

<sup>1</sup> <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori: "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"



kasb vakillaridir. Shu jumladan jurnalist tayyorlagan axborot kommunikativlik hamda jamoatchilik fikrini shakllantirish xususiyatiga ega.

Shu o'rinda axborot xavfsizligi sohasining termino elimentlarini ko'zdan kechirsak mazkur sohaga doir leksik birliklar turli adabiyotlar tarkibida jamlanganiga guvoh bo'lamiz. Axborot (arab. axbor– xabarlar, ma'lumotlar)–muayyan voqea hodisalar haqida xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish va idrok etishda qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyot tufayli keyingi vaqtda yangi, keng ma'no kasb etayotgan ma'lumot tushuniladi<sup>2</sup>.

Umumiy tushunchada tasniflaydigan bo'lsak “axborot” inson tana a'zolari bilan sezishi mumkin bo'lgan barcha ta'sir vositalarini qamrab oladi. Inson ehtiyojidan kelib chiqib axborot kanallarini tanlashi “axborot iste'moli madaniyati” uch komponentli atamaning yuzaga keltiradi. Tadqiqotchi olim Muhammad Amin Yahyo “Internetdagi tahdidlardan himoya” o'quv-uslubiy qo'llanmasida “Axborot iste'moli madaniyati” – ezgulik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni axborot dunyosidan saralab olishdagi bilimlar, qobilyat va malakani o'zida ifoda etadi<sup>3</sup>”- deya ta'riflaydi.

“Axborot iste'moli madaniyati” atamasi keng ma'noda jamiyatni axborotlashtirish siyosatidan kelib chiqadi. “Axborotlashtirish” – jamiyatning ma'naviy hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy texnik hodisa bo'lib, zamonaviy informatsion texnologik vositalar yordamida ijtimoiy tuzilma va jarayonlarni rivojlantirish, takomillashtirish va keskin kuchaytirishni anglatadi. So'ngi yillarda barcha davlatlarda tizimli ravishda axborotlashtirish, elektronlashtirish tizimiga o'tilmoqda. Bu aynan xizmat ko'rsatish sohalarida qo'l keldi. Chunki, bu jarayon aholida yanada qulaylik, shaffoflik, tezkorlik yaratmoqda. Ular birgina shaxsiy qurilmalari orqali tegishli saytlar yoki ma'lumotlarga bazasidan kerakli hujjatlarni olishlari mumkin. Bu biznes, savdo-sotiq sohalarida ham anchagina samarali natija bermoqda. Foydalanuvchilar online ravishda loyihalarda ishtirok etishlari, bizneslarini kengaytirishlari, buyurtma berishlari mumkin bo'ladi. Biroq, internet olami yuqorida ta'kidlanganidek, xavfsiz emas. Bu o'z o'rnida foydalanuvchilarda xushyorlikni talab etadi. Vizual vositalarga haddan tashqari bog'lanib qolish, har bir xabarlariga tekshirmasdan ishonish mediasavodsizlikka olib keladi va fikrlash doirasini ham susaytiradi.

“Axborotlashtirish” natijasida kelib chiqadigan yangi bir atama –“Avtoritar ong”. U yangilik va ijodiylikdan mahrum bo'lgan bir qolipdagi tafakkur tarzidir. Avtoritar ong– ijodiy ongga zid bo'lib, fikr-mulohaza yuritish va uni isbotlashda faqat bir tamoyilga tayanadigan kishilar tushuniladi. “Avtoritar ong” iste'mol

<sup>2</sup> Oyina.uz “Axborot. Axborotlashtirish” maqolasi

<sup>3</sup> Мухаммад Амин Яхё. Интернетдаги таҳдидлардан химоя. Ёрдამчи ўқув қўлланма.



qilinyotgan axborot ta'sirida vujudga keladi. Turli xil hujumlar natijasida ma'lum bir maqsadlarga xizmat qiladi. Hozirgi kunda bu ko'proq yoshlar ongiga ta'sir qilmoqda. Avval topshiriqli o'yinlar, multfilmlar orqali ularni ongi noto'g'ri shakllantiriladi, so'ng o'yin ichida ularni manipulyatsiya qilib buyruqlar berish boshlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda inson ongiga axboriy hujum "agressiya" – deb ataladi. "Agressiya" (lot. Agressio– hujum) biror bir buzg'unchi g'oya, vayronkor mafkuraga tayanib amalga oshiriladigan informatsion-psixologik hujum, axborot xuruji, g'oyaviy terror yoki ma'naviy mafkuraviy buzg'unchilik. Mazkur hujumlardan inson o'zida mafkuraviy immunitet hosil qilishi "xavfsizlik" deya ta'riflanadi. "Xavfsizlik" – uzoq davom etadigan, turli bahs-munozaralar mavzusi bo'ladigan abstrak kategoriya emas, balki vujudga kelgan iqtisodiy, harbiy, diplomatik, madaniy va ijtimoiy munosabatlar keng rivojlanayotgan bir davrda dunyoqarashga aylanishi lozim bo'lgan ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Yuqorida keltirilgan asoslarni inobatga olgan holda jurnalistika fakulteti talabalarini axborot saralash layoqati ya'ni ilmiy tilda aytganda kompetentligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik manbalarda – kompetentlik tushunchasi individda yuqori darajada rivojlangan ma'lum bir sifatlar yig'indisini yoki o'z aksini mehnat samaradorligida, aniqligida, tezkorligida namoyon etadigan faoliyatni amalga oshirishni bildiradi. Kompetentlik masalalarini quyidagi chet el va rus olimlari o'rganishgan: S.Bhawuk, R.W.Brislin, G.Koptel'tseva, D.Makkey, Yu.Rot, T.G.Stefanenko, G.U.Soldatova, K.Torn, L.A.Petrovskaya.

Kompetentlik tushunchasi deganda, ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo'lajak o'qituvchi) tomonidan egallangan kompetentsiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarning to'liq shakllangan majmui tushuniladi. Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan *competentia*, *competere* so'zidan olingan bo'lib — "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni bildiradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak jurnalistika fakulteti talabalarini axborot saralash kompetentligini shakllantirishni ta'lim orqali shakllantirilgan layoqat deya baholash mumkin. Ta'lim orqali kelajakda xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga



qarshi yosh-avlodni immunitetini shakllantirish kerak. Ammo bugungi axborotlashgan jamiyatda axborot tahdidlariga qarshi aniq mexanizmlar ishlab chiqmay turib axborotlashgan jamiyat madaniyatini yuksaltira olmaymiz. Xalqaro tajribaga tayangan holda hukumat tomonida texnologik jihatdan axborot psixologik xavfsizlikni konstruktiv mexanizmini ishlab chiqish lozim. Bu jarayonda xorij tajribasidan keng foydalangan holda xavfsizlik tizimlari texnologik hamda mafkuraviy qismlar orqali shakllantirish lozim.

Bo'lajak jurnalistlar uchun axborot xavfsizligini fan doirasida kompetentlik qobiliyatini shakllantirish jamiyatda sodir bo'layotgan voqeyliklarni tahlil qilish axboroting ijobiy va salbiy tomonlarini mushohada etishga yo'l-yo'riqlar berish. Shuningdek, globallashuv jarayonida ochiq axborot tizimlarida psixologik xavfsizlik masalalarida mafkuraviy imunitetni shakllantirish demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda jurnalistlar va bo'lajak jurnalistlarning malakali kadr bo'lib yetishishi uchun sohaga oid 3 ta qonun, Prezidentimizning 2 ta farmoni va 4 ta qarori, hukumatning 10 ga yaqin qaror va farmoyishi qabul qilindi. Buning natijasida mamlakatimizda axborot olish va axborotlashtirish, so'z erkinligi hamda davlat organlari va tashkilotlari ochiqligini ta'minlandi.

Prezidentimizning 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan, barcha davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari faoliyati qayta ko'rib chiqilib, zamonaviy talablar asosida tashkil qilindi.

Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida axborot siyosatini yuritishning asosiy ustuvor vazifalari sifatida:

– ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish;

– odamlarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlar ijrosi ahvolini o'rganishda ularning mehnatidan samarali foydalanish;

– ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish;

– mamlakatimizda bugungi islohotlar talabiga javob beradigan ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalarini shakllantirish va faoliyati samaradorligini oshirish belgilandi.

## **XULOSALAR**

Xulosa qilib aytganda, shiddat bilan o'zgaryotgan bugungi dunyoda axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat yon-atrofimizda yuz berayotgan jarayon va hodisalarga munosib javob berish, balki ularning o'z vaqtida oldini olish, yuzaga



kelishi mumkin bo'lgan ehtimolli xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish, hamda tegishli ehtiyot choralarini ishlab chiqish hamda tahdidlarni bartaraf etishni talab qiladi. Bugungi kunda yolg'on xabarlar, manipulyatsiya va noto'g'ri ma'lumotlar keng tarqalgan sharoitda jurnalistning haqiqatni aniqlash va uni professional darajada ommaga yetkazishdagi mas'uliyati keskin ortmoqda. Xususan, mojaroli yoki murakkab holatlarda xolislikni saqlash, faktlarga tayanish va voqea-hodisani har ikki tomon nuqtayi nazaridan yoritish jurnalistning eng muhim kasbiy mezonlaridan biriga aylanishi lozim. Bunday yondashuv nafaqat axborot sifatini oshiradi, balki jamiyatda ishonch va axborot madaniyatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Aliev, I. T. (2013). Professional competence of the teacher. In Problems and Prospects of Developing Professional-Pedagogical Competence of Teachers in the System of Continuous Education: Materials of the Republican Scientific-Practical Conference (p. 55). Tashkent: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
2. Explanatory Dictionary of the Basic Concepts of Spirituality. (2009). Tashkent: G'afur G'ulom Publishing House. p. 46.
3. G'ulomov, S. S. (Ed.). (2000). Information Systems and Technologies. Tashkent.
4. Information Security: Solutions and Problems. (2004). Tashkent: Iste'dod. p. 25.
5. Mannopov, J., & Kholmatova, A. (2013). Formation of the ability of a vocational education teacher to carry out independent pedagogical activity. In Problems and Prospects of Developing Professional-Pedagogical Competence of Teachers in the System of Continuous Education: Materials of the Republican Scientific-Practical Conference (pp. 208–209). Tashkent: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
6. Muhammad Amin Yahyo. (2016). Protection from Threats on the Internet: A Supplementary Textbook (pp. 55–88, 207). Tashkent: Mavaraunnahr Publishing House.
7. Muitov, D. (2014). Geopolitics and Journalism. Tashkent: Turan-Iqbol. p. 67.
8. President of the Republic of Uzbekistan. (2017). Decree on the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan. Collection of Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Art. 70. Retrieved from <https://lex.uz/docs/3107036>
9. Uzbekistan Journalists' Union. (2023, July 26). First National Report on the Development of National Journalism in Uzbekistan. UZA.
10. Yigitaliyev, O. H. (n.d.). Legal documents ensuring information security in the Republic of Uzbekistan and their analysis. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, pp. 1048–1058.